

STABLECOINLARNING FUQAROLIK-HUQUQIY TUSHUNCHASI VA HUQUQIY TABIATI

Raximov Jaloliddin Xaitboy o'g'li
Tezkor qidiruv xizmati terrorizmga
qarshi kurashish bolinmasi tezkor vakili katta leytenant
e-mail: Jahimov1427@gmail.ru

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida stablecoinlarning rivojlanishi, ularning global moliyaviy tizimdagi o'rni hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Stablecoinlar qiymati barqaror aktivlarga bog'langan raqamli vosita sifatida nafaqat kriptoaktivlar bozorining muhim qismi, balki zamonaviy to'lov va hisob-kitob tizimining innovatsion elementi sifatida shakllanayotgani asoslab beriladi. Tadqiqotda stablecoinlarning jadal o'sishi, ularning xalqaro to'lovlar tizimidagi ahamiyati, shuningdek, ular bilan bog'liq huquqiy muammolar, jumladan, mulkiy huquqlarni himoya qilish, shartnoma erkinligi va moliyaviy risklarni tartibga solish masalalari ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish siyosati, xususan stablecoinlardan to'lov vositasi sifatida foydalanishni sinovdan o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati, fuqarolik huquqi institutlarini modernizatsiya qilish hamda stablecoinlar uchun samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kriptovalyuta, raqamli aktiv, stablecoin, blokchain, virtual mulk

THE CIVIL LAW CONCEPT AND LEGAL NATURE OF STABLECOINS

Raximov Jaloliddin Xaitboy o'g'li
Tezkor qidiruv xizmati terrorizmga
qarshi kurashish bolinmasi tezkor vakili katta leytenant
e-mail: Jahimov1427@gmail.ru

ANNOTATION:

This study analyzes the development of stablecoins in the context of the digital economy, their role in the global financial system, and their impact on civil law relations. It substantiates that stablecoins, as digital instruments linked to stable assets, are becoming not only an important part of the crypto-asset market but also an innovative element of modern payment and settlement systems. The research examines the rapid growth of stablecoins, their significance in international payment systems, as well as related legal issues, including the protection of property rights, freedom of contract, and regulation of financial risks. Additionally, the study explores the policy of developing financial technologies in the Republic of Uzbekistan, particularly the ongoing reforms aimed at testing the use of stablecoins as a means of payment. The findings highlight the necessity of legal regulation of digital assets, modernization of civil law institutions, and the development of effective legal mechanisms for stablecoins.

Keywords: Cryptocurrency, digital asset, stablecoin, blockchain, virtual property

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СТЕЙБЛКОИНОВ

Raximov Jaloliddin Xaitboy o'g'li
Tezkor qidiruv xizmati terrorizmga
qarshi kurashish bolinmasi tezkor
vakili katta leytenant
e-mail: Jahimov1427@gmail.ru

Аннотация:

В данном исследовании анализируется развитие стейблкоинов в условиях цифровой экономики, их роль в глобальной финансовой системе, а также влияние на гражданско-правовые отношения. Обосновывается, что стейблкоины, как цифровые инструменты, привязанные к стабильным активам, становятся не только важной частью рынка криптоактивов, но и инновационным элементом современных платежных и расчетных систем. В работе рассматриваются быстрые темпы роста стейблкоинов, их значение в международных платежных системах, а также связанные с ними правовые проблемы, включая защиту имущественных прав, свободу договора и регулирование финансовых рисков. Также анализируется политика развития финансовых технологий в Республике Узбекистан, в частности реформы, направленные на тестирование использования стейблкоинов в качестве платежного средства. В результате исследования обосновывается необходимость правового регулирования цифровых активов, модернизации институтов гражданского права и разработки эффективных правовых механизмов для стейблкоинов.

Ключевые слова: Криптовалюта, цифровой актив, стейблкоин, блокчейн, виртуальная собственность

Dunyoda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi nafaqat an'anaviy moliyaviy tizimni, balki to'lov infratuzilmasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Shu o'zgarishlar kontekstida **stablecoinlar** – qiymati barqaror aktivlarga bog'langan raqamli aktivlar to'lovlar va hisob-kitoblar uchun yangi texnologik yechim sifatida tobora kengaymoqda. Stablecoinlar nafaqat kriptovalyuta bozorining bir qismi, balki global moliyaviy tizimning muhim elementi sifatida paydo bo'lmoqda. Ularning jadal o'sishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini yaratmoqda hamda mavjud normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

2025-yilda stablecoinlarning umumiy qiymati **\$252–\$300 milliard** atrofida bo'lib, yetakchi stablecoinlar Tether (USDT) va USD Coin (USDC)lar bozor kapitalizatsiyasining asosiy qismini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, stablecoinlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiya hajmi ham keskin oshmoqda: 2024 yilda bu ko'rsatkich **\$27.6 trillion** ga yetib, Visa va Mastercard kabi an'anaviy to'lov tizimlarining yillik tranzaksiya ko'rsatkichlarini ortda qoldirgan¹.

Stablecoinlar bilan to'lovlar 2025 yilda ham o'sishda davom etmoqda. Masalan, 2025 yilning birinchi yarmida stablecoinlar bo'yicha tranzaksiya hajmi oldingi yilga nisbatan keskin ko'tarilib, faol hamyonlar soni 53% ga oshdi. Bundan tashqari, 2025 yilda stablecoinlar orqali to'lovlar miqdori 2025

¹ <https://www.chainup.com/uz/blog/kripto-valyuta-nima>

yil boshidan beri **70% dan ortiq o'sdi**, ayniqsa korporativ to'lovlar segmentida B2B tranzaksiyalar yetakchi rol o'ynamoqda.

Stablecoinlarning moliyaviy muhitda faqat spekulativ aktiv sifatida emas, balki **real to'lov va hisob-kitob vositasi** sifatida ham jadal o'smoqda. Stablecoinlarga bo'lgan talabning kuchayishi, ularning blokcheyn asosidagi tezkorligi va xalqaro tranzaksiyalar uchun qulayligi tobora keng qabul qilinmoqda. Shu bilan birga, stablecoinlar fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan yangi huquqiy masalalarni, xususan to'lov majburiyatlarini bajarish, shartnoma erkinligi, moliyaviy risklarni bo'lishish va mulkiy huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq normativ muammolarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 11-noyabrda qabul qilingan PQ-359-son qaror bilan 2026—2030-yillarda moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi hamda raqamli valyutalar va milliy yoki xorijiy valyuta bilan ta'minlangan tokenlarni (barqaror tokenlar) to'lov vositasi sifatida tajriba-sinovdan o'tkazish nazarda tutildi. Mazkur qarorga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab stablecoinlardan rasmiy to'lov usuli sifatida foydalanish imkonini beruvchi maxsus sinov muhiti va qonuniy tokenlashtirilgan qimmatli qog'ozlar muomalasi yo'lga qo'yilishi belgilangan bo'lib, bu tashabbus Markaziy Osiyo mintaqasida kripto-aktivlar va blokcheyn texnologiyalarini huquqiy maydonga olib chiqish borasidagi eng muhim institutsional yutuqlardan biri sifatida baholanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida blokcheyn texnologiyasi asosida yaratilayotgan kripto-aktivlar moliyaviy munosabatlar tizimiga tubdan ta'sir ko'rsatib, to'lov infratuzilmasining samaradorligini oshirish, moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda O'zbekistonni mintaqaviy darajada raqamli moliya va fintech innovatsiyalar markaziga aylantirish uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratmoqda.

Raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida, inson jamiyatida azaldan mavjud bo'lgan an'anaviy ijtimoiy muhitdan tubdan farq qiluvchi yangi raqamli reallik shakllanib, ushbu reallikda iqtisodiy munosabatlar, mulkiy aloqalar, to'lov va ayirboshlash jarayonlari asosan raqamli shaklda amalga oshirilishi raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti huquq, huquq tizimi va huquqiy munosabatlar uchun qator yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, fuqarolik huquqi an'anaviy huquqiy mexanizmlar raqamli aktivlar, virtual mulk, blokcheyn texnologiyalari va kriptoaktivlar bilan bog'liq munosabatlarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Bu esa amaldagi huquq normalarini qayta ko'rib chiqish, ularni raqamli muhit xususiyatlariga moslashtirish hamda yangi huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar sharoitida fuqarolik huquqi institutlarini modernizatsiya qilish, xususan raqamli aktivlar va virtual mulkni huquqiy jihatdan aniq belgilash, ular uchun maxsus huquqiy rejim yaratish zamonaviy huquqiy taraqqiyotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Real va raqamli dunyo o'rtasida mavjud bo'lgan tafovut butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan "aqlli" qurilmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ulkan hajmdagi ma'lumotlardan to'liq va samarali foydalanish imkoniyatini cheklash, tafovutni bartaraf etish, shuningdek inson salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida, kengaytirilgan reallik texnologiyalarini keng qo'llash maqsadga muvofiq.

"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashina o'rganishi, katta ma'lumotlarni tahlil qilish hamda "bulutli" hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq

etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur sohada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shunga muvofiq, Real va raqamli dunyo o'rtasida mavjud bo'lgan tafovut butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan "aqli" qurilmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ulkan hajmdagi ma'lumotlardan to'liq va samarali foydalanish imkoniyatini cheklash, tafovutni bartaraf etish, shuningdek inson salohiyatini yanada to'liq ro'yobga chiqarish maqsadida, kengaytirilgan reallik texnologiyalarini keng qo'llash maqsad qilib olingan.

Kriptovalyutalar paydo bo'lgan paytdan boshlab, ularning huquqiy va iqtisodiy maqomi butun moliya olamini qiziqtirib kelmoqda. Hozirga qadar ular raqamli pul hisoblanadimi yoki shunchaki raqamli aktivmi, ushbu vosita jahon moliya tizimi uchun xavf tug'diradimi yoki yo'qmi, degan masala yuzasidan bahs-munozaralar davom etmoqda. Moliyaviy innovatsiyalar jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda, so'nggi bir necha yil ichida steyblkoin deb nomlanuvchi kriptoaktivning yangi turi paydo bo'ldi. Ushbu atama so'zma-so'z tarjimada «barqaror tanga» ma'nosini anglatadi.

So'nggi yillarda kriptovalyutalar orqali to'lovlarni amalga oshirish jahon miqyosida tobora keng ommalashib bormoqda. Ushbu jarayonda stablecoinlar muhim o'rin egallamoqda.

Stablecoinlar boshqa kriptovalyutalarga qaraganda foydalanuvchilarga tez, xavfsiz va narxi nisbatan barqaror to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi hamda ular orqali xalqaro savdo va elektron tijorat operatsiyalari an'anaviy bank tizimlariga nisbatan tezroq va arzonroq amalga oshadi. Shuningdek, ular foydalanuvchilarni inflyatsiya va valyuta kursining o'zgarishidan himoya qilish imkonini beradi, chunki stablecoin qiymati asosan real aktivlar bilan ta'minlangan kriptovalyuta hisoblanadi. Shu sababli, stablecoinlar nafaqat moliyaviy xizmatlarni soddalashtirish, balki raqamli iqtisodiyotda to'lov vositasi va virtual mulk sifatida keng qo'llanilmoqda.

Biroq stablecoinlar bilan bog'liq huquqiy va texnologik masalalar ham mavjud. Ularni tartibga soluvchi qonunlar, moliyaviy xavfsizlik va foydalanuvchilarni himoya qilish mexanizmlari rivojlanishi raqamli to'lovlarning yanada ommalashishiga xizmat qiladi. Xususan hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ham yangi shakllari vujudga kelmoqda. Bunda raqamli aktivlar, jumladan stablecoinlar orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish amaliyoti kengayib, an'anaviy to'lov vositalariga nisbatan muqobil mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyoti oldiga yangi huquqiy normalarni ishlab chiqiqsh vazifasini qo'yimoqda.

Dyuranske.B.T virtual makonda yuzaga keladigan asosiy huquqiy muammolarni o'rganishni boshlagan birinchi huquqshunoslardan biridir. U virtual olamlarning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan holda, ushbu olamda ham real huquqiy tartibga solishga muhtoj iqtisodiy tizimlarning mavjudligini ta'kidlagan. Uning fikricha, virtual olam foydalanuvchilari o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyatini ta'minlash shundan kelib chiqadiki, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga solishda nafaqat virtual, balki real pullarning muomalaga kirishi ham katta ahamiyatga ega. Ushbu jihat esa virtual olamlarda huquqiy tartibga solish zarurati haqidagi gipotezani tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, u virtual makondagi huquqiy muammolarni faqat texnologik yoki nazariy masala sifatida emas, balki ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy oqibatlarini ham tahlil qilgan. U virtual olamlar foydalanuvchilari o'rtasidagi to'lovlar, shartnomalar va moliyaviy operatsiyalarni tartibga solishning zaruriyati, shuningdek, real dunyo qonunlari bilan muvofiqligini ta'kidlagan². Shu nuqtai

² <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnye-miry-realnye-problemy/viewer>

nazardan, uning tadqiqotlari virtual va real huquqiy tizimlar o'rtasidagi integratsiyani o'rganishda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Shunisi e'tiborga loyiqlik, ayrim doiralar tomonidan so'nggi yillarda stablecoin joriy qilish orqali millatlararo valyuta maqomini olish g'oyasi ekspert va ilmiy hamjamiyat tomonidan jiddiy muhokama qilinmoqda. Xususan, 2020-yil

13-oktabrda G20 doirasida faoliyat yurituvchi Moliyaviy barqarorlik kengashi tomonidan "Global stablecoin"larning paydo bo'lishiga tayyorgarlik ko'rish faoliyatini tartibga solish, boshqarish va nazorat qilish masalalariga bag'ishlangan hisobot hamda tavsiyalar e'lon qilingan bo'lib, mazkur hujjatlarda steyblkoinlar potensial millatlararo valyuta sifatida ko'rib chiqilgan.

Moliyaviy barqarorlik kengashi stablecoinlarni xalqaro moliya tizimiga joriy etish bo'yicha o'z qarashlarini e'lon qilgan. Mualliflarining qayd etishicha, stablecoinlar raqamli aktivlar turi sifatida tan olinadi, global stablecoinlar esa o'z navbatida stablecoinlarning alohida bir turi hisoblanadi. Stablecoinlar boshqa raqamli aktivlardan masalan, kriptovalyutalardan ushbu aktiv qiymatining o'zgaruvchanligini kamaytirishga qaratilgan maxsus barqarorlashtirish mexanizmlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

"Stablecoin" atamasi to'xtaladigan bo'lsak, odatda ma'lum bir aktivga yoki aktivlarga nisbatan o'z qiymatini barqaror saqlashni maqsad qilgan kripto-aktivni anglatadi³. O'z navbatida, ushbu aktivlarning qiymati odatda stablecoinning bozor qiymatini belgilaydi yoki unga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Stablecoinlar, shuningdek, talabdagi o'zgarishlarga javoban taklifni avtomatik ravishda moslashtirish orqali o'z bozor qiymatini barqarorlashtirish yoki unga ta'sir ko'rsatish maqsadida algoritmik yoki boshqa mexanizmlardan foydalanishi mumkin.

Stablecoin tushunchasining umumiy e'tirof etilgan yagona ta'rifi mavjud emas. Ushbu atama alohida huquqiy yoki tartibga soluvchi toifani anglatmay, raqamli aktivlar (kriptovalyutalar) turkumiga kiruvchi pul birligi bo'lib, uning bozor qiymati an'anaviy fiat pullari (masalan, AQSh dollari yoki yevro), tovarlar (oltin) yoki boshqa raqamli yirik aktivlar bilan barqaror bog'langan shakli hisoblanadi.

A.Nadal kripto-aktivlarning katta va xilma-xil bozorida "stablecoinlar" kategoriyasi yoki atamasi qiymatini barqarorlashtirishni maqsad qilgan kripto-aktivlarni anglatishini ta'kidlab ularni a'minot (backing) turiga qarab, qonuniy valyuta bilan ta'minlangan stablecoinlar, qonuniy valyutadan boshqa aktivlar bilan ta'minlangan stablecoinlar, kriptovalyuta bilan ta'minlangan stablecoinlar, Algoritmik stablecoinlar ajralishini ta'kidlagan⁴.

Liverpool Universiteti huquqshunos olimi Firat Cengiz stablecoinlar blokcheyn asosida ishlaydigan raqamli valyutalar bo'lib, ularning qiymati o'zgaruvchanlikni kamaytirish maqsadida boshqa bir aktivga bog'lab qo'yilishini aytib o'tgan⁵.

D.A. Zetsche Stablecoinlar an'anaviy moliyaviy tizimni **blokcheyn shaklida** takrorlashini ta'kidlaydi.

P.Hacker fikriga ko'ra, stablecoinlar xususiy pul shakli sifatida namoyon bo'lib, ular bank tizimiga o'xshash likvidlik va tizimli risklarni keltirib chiqaradi⁶.

Deutsche Bundesbank esa ularni moliyaviy barqarorlikka potensial tahdid sifatida baholaydi.

³ Regulation, Supervision and Oversight of «Global Stablecoin» Arrangements. Final Report and High-Level Recommendations // Financial Stability Board. 2020. October, 13. URL: <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P131020-3.pdf>

⁴ A. Martínez Nadal, Stablecoins in the MiCA Regulation University of the Balearic Islands, Department of Private Law, Palma, Spain e-mail: apollonia.martinez@uib.es, 2025

⁵ Stablecoins and their regulation: a Hayekian approach Firat Cengiz, Journal of International Economic Law, 2025, 28(2), 204–223 <https://doi.org/10.1093/jiel/jgaf014> Advance Access Publication Date: 21 May 2025

⁶ https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3767073

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi 2025-yilda O'zbekistonda hisob-kitoblar uchun stablecoinlardan foydalanishni sinovdan o'tkazishga va fond bozorida aktivlarni tokenizatsiya qilish loyihalarini ishga tushirishga tayyorgarlikni boshlab yuborgan. Ularning ta'kidlashicha stablecoinlardan to'lov vositasi sifatida foydalanishni sinovdan o'tkazuvchi loyihalarni, shuningdek, kapital bozorida qimmatli qog'ozlarni tokenlashtirishni amalga oshirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiriladi. Shu bilan birga agentlik stabilkoinlarning ta'rifiga to'xtalib, qiymati AQSh dollari, yevro, oltin yoki boshqa likvid resurslar kabi ma'lum bir aktivga bog'langan kriptovalyuta tokenlarining bir turi sifatida baholaganlar. Hamda ularning chiqarilishi markazlashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi, ular ularni milliy valyutalar, davlat obligatsiyalari yoki boshqa qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlaydi. Eng mashhur misollar USDT (Tether) va USDC (Circle) ekanligini ta'kidlaganlar.

Tokenizatsiya qimmatli qog'ozlarga masalan, aksiyalar yoki obligatsiyalarga huquqlarni blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda raqamli shaklga o'tkazishni anglatadi. Mulkchilik qog'oz yoki elektron sertifikatlar orqali qayd etiladigan amaldagi amaliyotdan farqli o'laroq, tokenizatsiya har bir qimmatli qog'ozni raqamli token — mulkchilik huquqlarini tasdiqlovchi xavfsiz blokcheyn yozuvi sifatida ifodalaydi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning birinchi yarmi yakuniga kelib, dunyoning 36 ta markaziy banki chakana yoki ulgurji raqamli valyutalarni joriy etish bilan bog'liq hujjatlarni e'lon qilgan. Shu bilan birga, Urugvay, Ekvador va Ukraina davlatlarida chakana raqamli valyutalar bo'yicha pilot loyihalar yakunlangan bo'lsa, xuddi shunday dastlabki loyihalar Shvetsiya, Janubiy Koreya, Sharqiy Karib dengizi valyuta ittifoqi, Bagama orollari, Xitoy va Kambodjada ham amalga oshirilmoqda.

Kriptovalyutalar, stablecoinlar, bank tangalari va tokenlashtirilgan aktivlar kabi boshqa raqamli to'lov shakllari fuqarolarning mol-mulki va moliyaviy huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan ham hisobga olinishi kerak. Shu bilan birga, ushbu raqamli to'lov vositalari Markaziy Bankning raqamli valyutasi bilan o'zaro ishlay olishi ta'minlanishi, fuqarolarga o'z moliyaviy operatsiyalarini xavfsiz va qonuniy tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratishi lozim.

Stabilkoinlarga bo'lgan talab barqaror xarakterga ega bo'lib, so'nggi paytlarda "stabilkoinlar bosqini" deb ataluvchi hodisa ta'sirida yanada ortib bormoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab taxminan 200 ga yaqin stabilkoin mavjud bo'lib, ularning ayrimlari allaqachon muomalaga chiqarilgan, boshqalari esa ishlab chiqilish bosqichida hisoblanadi.

Shuningdek, JP Morgan kabi kriptoaktivlar sohasiga kirib kelishni rejalashtirayotgan ko'plab moliyaviy xizmatlar provayderlari stabilkoinlardan foydalanishga katta qiziqish bildirmoqda.

Stabilkoinlar, asosan, ularni qo'llab-quvvatlovchi aktivlar asosida quyidagi toifalarga bo'linishi mumkin.

- Tovarlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan stabilkoinlar
- Kripto aktivlari bilan ta'minlangan stabilkoinlar
- Fiat valyutasi bilan ta'minlangan stabilkoinlar
- Seigniorage tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan stabilkoinlar

Bunda tovar bilan kafolatlangan stablecoinlar haqiqiy tovarlar, masalan, oltin yoki boshqa qimmatbaho resurslar bilan bog'langan. Token egalari tovar rezervlari orqali tokenning qiymatini barqaror saqlashga ishonch hosil qiladilar. Misol: Digix Gold (DGX), u oltin bilan kafolatlangan stablecoin hisoblanadi.

Kripto aktivlari bilan ta'minlangan stabilkoinlarga to'xtaladigan bo'lsak, standard kriptovalyutalarga nisbatan stablecoin narxi o'zgaruvchanlikni kamaytirish uchun maxsus mexanizmlarga ega bo'ladi, ya'ni uning qiymati nisbatan barqaror bo'lishi lozim.

Fiat bilan ta'minlangan kriptovalyutalarni eng ko'p mavjud bo'lgan stablecoin hisoblanadi. Nomidan ko'rinib turibdiki, bunday stablecoin turlari garov sifatida saqlanadigan AQSh dollari, yevro yoki Xitoy yuani kabi fiat valyutalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. An'anaviy fiat pullari davlat tomonidan chiqarilgan va qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olingan pul birligi hisoblanadi. Masalan, AQSh dollari (USD), Yevro (EUR), O'zbekiston so'mi (UZS) – bularning qiymati davlat kafolati bilan ta'minlangan va ular barcha iqtisodiy operatsiyalarda qonuniy hisoblanadi. An'anaviy fiat pullari naqd shaklda (banknota, tanga) yoki bank hisobi orqali elektron shaklda mavjud bo'lishi mumkin. Kriptovalyutalar yoki stablecoinlar farqli jihati shundaki, fiat pullar o'z qiymatini boshqa aktivlar bilan emas, balki davlat kafolati va iqtisodiy ishonch orqali saqlaydi.

Raqamli moliyaning tez rivojlanayotgan sharoitida, fiat bilan qo'llab-quvvatlanadigan stablecoinlar kripto va raqamli aktivlar bilan bog'liq turli muammolarni hal qilishning asosiy yechimi sifatida paydo bo'lgan. Fiat bilan qo'llab-quvvatlanadigan stablecoinlar kriptovalyutaning afzalliklarini Bitcoin yoki Ethereum kabi raqamli aktivlarga odatda hamroh bo'ladigan o'zgaruvchanliksiz taqdim etadi. Ushbu stablecoinlar an'anaviy, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan valyutalarning barqarorligini blokcheyn texnologiyasining samaradorligi va mavjudligi bilan birlashtiradi.

Demak stablecoin o'z qiymatini davlat kafolatiga ega fiat valyutaga muvofiq saqlaydi. Ushbu maxsus maqsadli tokenlar o'zining o'zgaruvchanliksizligi xususiyati tufayli katta e'tibor va qiziqish uyg'otgan, chunki bugungi kriptovalyutalarda qiymatning katta o'zgaruvchanligi muhim muammo bo'lib keladi. Biroq, hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan stablecoin dizaynlari yetarlicha barqaror emas va bir nechta muvaffaqiyatsizlik xavfini o'zida mujassamlashtiradi, bu ularning keng qabul qilinishini cheklaydi. Fiat bilan kafolatlangan stablecoinlar foydalanuvchilardan markazlashgan sub'yektga ishonishni talab qiladi, bu esa markazsizlashtirish va mustaqillik tushunchasini buzadi.

Bizningcha stablecoinlar bu narxi barqaror bo'lishi uchun ma'lum bir tayanch aktivga bog'langan kriptoaktivlar hisoblanadi. Oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak stablecoin bu "internetdagi dollarga o'hshash" vosita ya'ni u bankdagi dollar emas lekin u bilan qiymati bir xil turishga harakat qilinadi 1ta coin 1collarga teng bo'lishini nazarda tutadi.

Stablecoinlar odatda faqat dollar bilan bog'lanmasdan boshqa obyektlar bilan ham hususan, oltin, davlat obligatsiyalaridan iborat zaxiralarga va boshqalar bilan bog'lanishi mumkin. Ularning asosiy vazifasi kripto olamda hisob birligi, almashinuv vositasi ba'zi hollarda qiymatni saqlash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Stablecoin qanday ishlashi yuzasidan savol tug'ilish tabiiy, Bunda ko'p hollarda uning qaysi modelga asoslanishiga bog'liq.

Modellarga to'xtaladigan bo'lsak, fiat bilan ta'minlangan model, tovar bilan ta'minlangan, kripto aktiv bilan ta'minlangan, algoritmic model, Gibrid model kabilar mavjud bo'lib eng oddiy modell bu fiat bilan ta'minlangan model hisoblanadi bunda, stablecoin qiymati qonuniy to'lov valyutasi bilan bog'lanadi misol uchun pul birligimiz so'm bilan ham bog'lanishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida huquqiy tizim, Markaziy bank siyosati va NAPP regulyatsiyasi hisobga olinsa stablecoinlar uchun **eng "mos va realistik" model — fiat-backed (fiat bilan ta'minlangan) modelni** olishimiz mumkin. Chunki u Markaziy bank nazorati, moliyaviy barqarorlik va roman-german huquq tizimidagi aniq boshqaruv tamoyillariga eng mos keladi.

References

1. Дюранске Б. Т., Кейн Ш. Ф. Виртуальные миры, реальные проблемы //Известия высших учебных заведений. Правоведение. – 2013. – №. 2. – С. 131.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnye-miry-realnye-problemy/viewer>
3. Перцева С. Ю. Глобальная цифровая валюта: миф или реальность //Проблемы национальной стратегии. – 2021. – №. 2. – С. 99-110.
4. Regulation, Supervision and Oversight of «Global Stablecoin» Arrangements. Final Report and High-Level Recommendations // Financial Stability Board. 2020. October, 13. URL: <https://www.fsb.org/wp-content/uploads/P131020-3.pdf>
5. A. Martínez Nadal, Stablecoins in the MiCA Regulation University of the Balearic Islands, Department of Private Law, Palma, Spain e-mail: apollonia.martinez@uib.es, 2025
6. Stablecoins and their regulation: a Hayekian approach Firat Cengiz, Journal of International Economic Law, 2025, 28(2), 204–223 <https://doi.org/10.1093/jiel/jgaf014> Advance Access Publication Date: 21 May 2025
7. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3656423
8. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3767073
9. <https://www.bundesbank.de/en/publications/research/stablecoins-in-focus-820120>
10. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-prepares-to-pilot-stablecoins-and-asset-tokenization-on-the-stock-market/>
11. Central bank digital currencies: foundational principles and core features // BIS. 2020. October, 9. URL: <https://www.bis.org/publ/othp33.htm>